BIZNES JARAYONLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ASOSLARI	849
<i>Yoqubjanov Muminmirzo Nosirjon o'g'li, Erkinxojiyev Ismoiljon</i>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA UNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	853
<i>Ernazarov Gulam Bekbaevich</i>	
SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI	860
<i>Mirzokirov Mirramizjon Mirxoshim o'g'li</i>	
ФИНАНСОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	867
<i>Урунова Мафтуна Гайратовна</i>	
АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ЭКОНОМИКИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ	871
<i>Некова Фатима Борисовна</i>	
MINTAQA SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA KLASTERLASH VA RAQAMLI BOSHQARUV TIZIMLARINING AHAMIYATI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	876
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI TIZIMINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY TASHKILY-IQTISODIY USULLARDAN FOYDALANISH	882
<i>Kayumov Z.O.</i>	
O'ZBEKISTONDA VALYUTA KURSINING SHAKLLANISHI VA UNING INFLATSIYA DARAJASIGA TA'SIRI MEKANIZMI.....	887
<i>Matrizayev Zafar Gulimboy o'g'li, Viqorjon Bahriddinov Akbar o'g'li</i>	
МЕХНАТ BOZORINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI.....	892
<i>Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	897
<i>Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li</i>	
НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	901
<i>Мирзаев Кулмамат Джанзакович</i>	



ELEKTR UZILISHLARINING HUDUDIIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	906
<i>Oltiboyeva Feruza Ulug'bek qizi</i>	
DAVLAT TRANSPORT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	911
<i>Uktamov Sarvar Atxam o'g'li</i>	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИНСТРУМЕНТЫ ПОДДЕРЖКИ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В СТРАНАХ ЕС, США И ЯПОНИИ	915
<i>Газизова Эльмира Хамидовна, Мелибаева Гульнора Ачилевна</i>	
SANOATNI HUDUDIIY RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH SALOHIIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH OMILLARI	921
<i>O'zmanov Ixtiyor Ibragim o'g'li</i>	
SUG'URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	926
<i>Sherov Sanjar Radjabovich</i>	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI STRATEGIYALAR ASOSIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	932
<i>Umurov Jasurbek Jamil o'g'li</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	936
<i>Raxmonov Abduxalil Rasulovich</i>	
INKLYUZIV TA'LIM XIZMATLARINING RAQAMLI EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT, OTM VA IT INFRATUZILMA INTEGRATSIYASI	940
<i>Maxkamova Kamola</i>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BUDJETLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (ENERGETIKA KORXONALARI MISOLIDA)	944
<i>Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich</i>	
UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	950
<i>Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li</i>	
TIKUV-TRIKOTAJ MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KICHIK KORXONALARNING IQTISODIIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI	956
<i>Abduhamidov Abdurahmon Abdulatif o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA 2026-2030-YILLARGA MO'LJALLANGAN SOLIQ MA'MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	963
<i>Ismailov Timur Atabayevich</i>	
SAVDO LIBERALIZATSIYASINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI TARKIBIGA TA'SIRI	969
<i>Sardorjon Maxmudov Sobirjon ug'li</i>	
MAHALLIIY BUDJETLAR MOLIYAVIIY BARQARORLIGINING UY XO'JALIKLARI FAROVONLIGI VA HUDUDIIY IQTISODIIY O'SISHGA TA'SIRINI EMPIRIK TAHLIL QILISH	977
<i>Safarmurodova Marjona To'raqulovna, Ollokulova Feruza Mansurovna</i>	
FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF FINANCIAL SUSTAINABILITY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE OIL AND GAS SECTOR	982
<i>Ergashev Muhibbek Aslamovich</i>	
O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA FIN TECH KOMPANIYALARI VA BANKLAR HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI	988
<i>Rajabova Umida Umurzoqovna</i>	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВЫХ ПРЕФЕРЕНЦИЙ И ЛЬГОТ В ОБЕСПЕЧЕНИИ РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ (НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)	995
<i>Отамуродова Дилдора Абдуқримовна</i>	
THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON INTERNATIONAL MARKETING: RESHAPING GLOBAL MARKET ENTRY STRATEGIES AND CONSUMER ENGAGEMENT	1001
<i>Aziz Kurbanovich Abdullaev, Ne'matullyev Bekmirzo Bozorboy o'g'li, Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li</i>	



TARIXIY-MADANIY TURIZM XIZMATLARINI MINTAQADA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH.....	1010
Erkayeva Barno Abduraximovna	
GLOBAL IQTISODIY INTEGRATSIIYA SHAROITIDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MENEJMENT YONDASHUVLARINING ROLI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1015
Mahmudova Madinaxon Jumaboy qizi	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УКРЕПЛЕНИЯ ДОХОДНОЙ БАЗЫ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	1020
Т. И. Бобакулов, Г. Ч. Джавлиев	
ECOTOURISM DEVELOPMENT POTENTIAL AND THE ROLE OF GUIDES IN REGIONAL TOURISM GROWTH: EVIDENCE FROM THE NAVOI REGION OF UZBEKISTAN.....	1024
Axmadova Iroda Muzaffar kizi	
DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND ITS PRIORITY DIRECTIONS.....	1030
Ollokulova Feruza Mansurovna, Guzal Abdimurodova Panjiyevna	
KORRELYATSION - REGRESSION TAHLILNING QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA QO'LLANILISHI AHAMIYATI.....	1035
Butanova Dilnoza Rustamovna	
MADANIYATLARARO YETAKCHILIK VA LINGVOMADANIY KOMPETENTSIYA BOSHQARUV ISHI SIFATIDA.....	1042
Rahimova Gulnoza	
SANOAT KORXONALARINI YANGI TEXNIKA VA TEXNOLOGIYA BILAN TA'MINLASH JARAYONLARINING HOZIRGI ZAMON HOLATI.....	1052
Akbarova Maloxat Atabekovna	
UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA INNOVATSION RIVOJLANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH.....	1056
Abdukadirova Nilufar Abdaxatovna	
FARG'ONA VILOYATIDA INVESTISIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH BARQAROR IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA.....	1062
Qo'chqarov Yunusali Sobirjonovich	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL KREDITLASH" TIZIMI: NAZARIYA VA AMALIYOT.....	1069
Erkinov Farrux Rustam o'g'li	
AKSIZ SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGI TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1075
Nazarova Rushana Ravshan qizi	
MOL-MULK SOLIG'I TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOLIVAVIY ASOSLARI.....	1080
Qodirov Hasan Do'stqobilovich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI IQTISODIY JARAYONLARNI RAQAMLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1084
Matyoqubov Yo'ldoshboy Ergashboy o'g'li	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI SOLIQ VOSITASI ORQALI QISQARTIRISHDA HUKUMATNING ROLI.....	1089
Pirnafasov Sarvar Bardibayevich	
HUDUDNING TURIST JOZIBADORLIGINI IQTISODIY BAHOLASH VA TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY TAMOYILLARI.....	1093
Q.A. Musaxanov	



HUDUDNING TURIST JOZIBADORLIGINI IQTISODIY BAHOLASH VA TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY TAMOIYILLARI

Q.A. Musaxanov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

katta o'qituvchi, PhD

ORCID: 0009-0004-3425-5084

Annotatsiya. Mazkur maqolada hududning turistik jozibadorligini iqtisodiy baholash va uni tartibga solishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda turizm ko'p omilli tizim sifatida ko'rib chiqilib, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy omillar kompleks baholanadi. Tizimli yondashuv hamda korrelyatsion-regression tahlil usullari yordamida omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanadi. Shuningdek, statistik va sifat ko'rsatkichlarini uyg'unlashtirish zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari turizmni samarali boshqarish, hududiy rivojlanishni jadallashtirish va barqaror turizmni ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: turistik jozibadorlik, hududiy rivojlanish, turizm iqtisodiyoti, tizimli yondashuv, korrelyatsion-regression tahlil, turizm salohiyati, iqtisodiy baholash, barqaror turizm, turizm infratuzilmasi, statistik monitoring.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of the economic assessment of a region's tourist attractiveness and its regulation. Tourism is considered as a multifactorial system, and the economic, social, and infrastructural factors influencing its development are evaluated comprehensively. Using a systems approach and correlation-regression analysis methods, the interrelationships between factors are identified. The necessity of integrating statistical and qualitative indicators is also substantiated. The results of the study have significant scientific and practical importance for effective tourism management, accelerating regional development, and ensuring sustainable tourism.

Key words: tourist attractiveness, regional development, tourism economics, systems approach, correlation-regression analysis, tourism potential, economic assessment, sustainable tourism, tourism infrastructure, statistical monitoring.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы экономической оценки туристической привлекательности региона и её регулирования. Туризм рассматривается как многофакторная система, а экономические, социальные и инфраструктурные факторы, влияющие на его развитие, оцениваются комплексно. С использованием системного подхода и методов корреляционно-регрессионного анализа определяется взаимосвязь между факторами. Также обосновывается необходимость интеграции статистических и качественных показателей. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для эффективного управления туризмом, ускорения регионального развития и обеспечения устойчивого туризма.

Ключевые слова: туристическая привлекательность, региональное развитие, экономика туризма, системный подход, корреляционно-регрессионный анализ, туристический потенциал, экономическая оценка, устойчивый туризм, туристическая инфраструктура, статистический мониторинг.

KIRISH

Turizm industriyasi iqtisodiyotning ko'p qirrali sektori bo'lib, uning faoliyati bevosita va bilvosita iqtisodiyotning 50 tagacha sohasini, jumladan, transport, qurilish, savdo, umumiy ovqatlanish, qishloq xo'jaligi, uy-joy-kommunal xizmatlar, madaniyat, san'at, sport va boshqa yo'nalishlarni qamrab oladi.

Turizmni rivojlantirishni samarali boshqarish uchun muayyan hududning sayyohlar uchun jozibadorligiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish hamda uning tarkibiy qismlarini baholash imkonini beruvchi ko'rsatkichlarni aniqlash zarur. Turizm industriyasining rivojlanish dinamikasini boshqarishdan asosiy maqsad hududning turistik jozibadorligini barqaror oshirish uchun qulay sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bois, mazkur ko'rsatkichlar turizm industriyasining rivojlanish darajasini prognoz qilish va uni har tomonlama baholash imkonini berishi lozim.



Barcha omillarni kompleks hisobga olish hamda ularning hududning turistik jozibadorligiga ta'sir darajasini aniqlash uchun ko'plab individual ko'rsatkichlarni umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarga keltirish (konvertatsiya qilish) metodologiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Hududlarning turistik jozibadorligini iqtisodiy baholash va uni tartibga solish masalasi zamonaviy turizm iqtisodiyoti hamda mintaqaviy rivojlanish nazariyasida muhim ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar hududlarning turizm salohiyatini aniqlash, ularni o'zaro taqqoslash va samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda kompleks yondashuv zarurligini asoslab bermoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda turistik jozibadorlikni baholashda integral indikatorlardan foydalanish masalasi keng yoritilgan. Turizm samaradorligini aniqlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlarda bir qator olimlar, xususan, M.V. Juk., B.S. Kravtsov, L.S. Xryniv, S.P. Kuzyk, V.I. Pavlov, I.V. Zorin, V.I. Azar, V.A. Kvartalnov tomonidan taklif etilgan mezonlar alohida ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra, turistlar oqimi hajmi, turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi, korxonalarining moliyaviy natijalari, turistlarning o'rtacha xarajatlari hamda xalqaro turizm ko'rsatkichlari turizmning iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv turizmni iqtisodiy tizimning muhim sektori sifatida chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda hududning turistik jozibadorligini iqtisodiy baholash va uni tartibga solish jarayoni kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Turizm sanoati ko'p komponentli tizim sifatida qaralib, uning rivojlanish darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va baholash metodologiyaning asosiy yo'nalishini tashkil etadi.

Tadqiqotda hududning turistik jozibadorligi ko'p omilli ko'rsatkich sifatida talqin qilinib, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar majmui aniqlashtirildi. Har bir omil alohida holda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmasligi, biroq ularning o'zaro uyg'unlashgan ta'siri yakuniy natijani belgilashi inobatga olindi. Shu bois, omillar ta'sirini miqdoriy baholashda iqtisodiy-matematik usullardan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi.

Asosiy metod sifatida ko'p omilli korrelyatsion-regression tahlil qo'llanildi. Ushbu usul hududning turistik jozibadorligi ko'rsatkichining turli omillarga bog'liqligini aniqlash, ularning ta'sir darajasini baholash hamda omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi. Regressiya modeli yordamida natijaviy ko'rsatkich — turistik jozibadorlik va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi funksional bog'lanish aniqlanib, ularning qo'shma ta'siri miqdoriy jihatdan ifodalandi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Muayyan hududda turizm faoliyatining ko'p qirrali xususiyatlarini to'liq hisobga olish uchun nafaqat uning tarkibiy qismlarini miqdoriy baholash, balki hududning turistik jozibadorligini oshirish jarayonining barcha jihatlarini rivojlanishini prognoz qilish imkonini beruvchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish zarur. Hozirgi kunda hududning turistik jozibadorligi darajasini aniqlash imkonini beruvchi yagona, ilmiy asoslangan kompleks ko'rsatkich mavjud emas.

Bunday tizim yoki umumlashtiruvchi ko'rsatkich amaliy foydalanish uchun qulay va moslashuvchan bo'lishi lozim. Shu bois, hududning turistik jozibadorligini baholashda ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishda mavjud davlat statistika tizimiga tayanish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv yetarli hajmdagi ishonchli ma'lumotlardan foydalanish hamda parametrlarning miqdoriy ifodasini barqaror saqlash imkonini beradi.

Mintaqaning haqiqiy turistik jozibadorligini aniqlashda Jahon turizm tashkiloti — UNWTO tomonidan tavsiya etilgan metodologiyadan foydalanish samarali hisoblanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, turizm sanoati natijalari bo'yicha statistik ma'lumotlar asosida tahlil olib boriladi. Xususan, muayyan davrda mintaqaga tashrif buyurgan sayyohlar soni hamda turizmdan olingan daromad ko'rsatkichlari asosida turizmning mintaqaviy iqtisodiyotiga qo'shgan hisssasi va turistik xizmatlarga bo'lgan talab darajasi aniqlanadi.

Turizm sanoatini rivojlantirish dasturlarini rejalashtirish, tartibga solish va ishlab chiqishda potensial turistik jozibadorlikni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, turizm sanoatining muayyan mintaqada erishishi mumkin bo'lgan rivojlanish darajasi, uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi, shuningdek, mazkur hududda turizmni rivojlantirishning maqsadga muvofiqligi baholanadi. Shu bilan birga, turistik jozibadorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, hududning maksimal darajadagi turistik jozibadorligiga erishish uchun zarur chora-tadbirlar ishlab chiqiladi (1-rasm).



1-rasm. Potensial turistik jozibadorlik komponentlari

- texnik turistik jozibadorlik (P(t) TP);
- iqtisodiy turistik jozibadorlik (P(e) TP).

Texnik turistik jozibadorlik — bu hududning turistik turar joy muassasalari hamda mavjud turistik resurslari asosida ma'lum bir mintaqa tomonidan qabul qilinishi mumkin bo'lgan sayyohlar sonini jalb etish salohiyati bo'lib, bunda hududdagi ruxsat etilgan rekreatsion yuklama darajasi ham inobatga olinadi.

Iqtisodiy turistik jozibadorlik — bu muayyan mintaqaga tashrif buyurgan sayyohlar sonining iqtisodiy jihatdan eng maqbul darajasi bo'lib, u maksimal ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishish imkonini beradi.

Hududning texnik turistik jozibadorligini baholashda turistik korxonalar va boshqa tegishli muassasalarning statistik hisobotlarida keltirilgan ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Statistik ma'lumotlar asosida turar joy muassasalari soni hamda ulardagi joylar sig'imini aniqlash orqali muayyan mintaqaning qancha sayyohni qabul qila olishi baholanadi. Bu esa hududda turizmni rivojlantirishning real holatini aniqlash imkonini beradi.

Mintaqaning iqtisodiy turistik jozibadorligini aniqlashda maksimal iqtisodiy samaradorlikka erishishga ta'sir etuvchi omillar majmui hamda ushbu samaradorlikni ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlar hisobga olinadi. Ayrim hollarda mintaqada turizmni rivojlantirish salohiyati va ko'p sonli sayyohlarni qabul qilish imkoniyati mavjud bo'lsa-da, maksimal iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun zarur xarajatlar iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lmasligi mumkin. Shu sababli, iqtisodiy samaradorlik va resurslardan oqilona foydalanish o'rtasida muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Turistik-rekreatsion salohiyat — bu tarixiy-madaniy, davolash-sog'lomlashtirish hamda rekreatsion resurslarning mavjudligi, ularning miqdoriy va sifat xususiyatlari, shuningdek, turistik infratuzilmaning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Mavjud turistik resurslarga ega hudud ma'lum darajada potensial sayyohlar uchun jozibador hisoblanadi. Biroq, yuqori darajadagi turistik jozibadorlikka erishish uchun faqat resurslarning mavjudligi yetarli emas. Turistik markazni shakllantirish uchun mazkur jarayonning barcha tarkibiy qismlarini, jumladan, moddiy-texnik baza (MTB), turistik infratuzilma va marketing siyosatini kompleks rivojlantirish zarur.

Hududning turistik jozibadorlik darajasini baholash metodikasini ishlab chiqishda uning asosiy komponentlarini aniqlash muhim hisoblanadi. Shu munosabat bilan, hududning turistik jozibadorligini shakllantiruvchi muhit va tizimni tashkil etuvchi komponentlar hamda ularga kiruvchi elementlar ro'yxati ishlab chiqiladi (1-jadval).

1-jadval. Hududning turistik jozibadorligi komponentlari va ularning elementlari

Komponentlar		Elementlar
Qo'llab-quvvatlash tizimi	Asosiy tarkibiy qismlar	Tabiiy turistik resurslar
		Antropogen kelib chiqishga ega turistik resurslar: tarixiy va me'moriy yodgorliklar, madaniy va diniy qadriyatlar va boshqalar
		Moddiy-texnik baza (MTB): turizm infratuzilmasi, soha uchun investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash
	Qo'shimcha komponentlar	Marketing yordami: narx siyosati, axborot ta'minoti
		Mehnat resurslari
Atrof-muhit omillari	Tashqi ta'sir	Atrof-muhit sifati
		Mintaqaning umumiy qiyofasi: iqtisodiy jozibadorlik, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, siyosiy barqarorlik, jinoyatchilik darajasi

Hududning turistik jozibadorligini oshirishning muhim vositalaridan biri turizmning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, jumladan, turistik infratuzilmani takomillashtirish hamda sohaga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Mintaqaning turistik jozibadorligini oshirishda faqat turistik resurslarning mavjudligi yetarli emas. Zamonaviy mehmonxonalar, rivojlangan yo'l infratuzilmasi va sifatli xizmatlar mavjud bo'lgan taqdirdagina hududga ko'proq sayyohlarni jalb etish va yuqori iqtisodiy samaraga erishish mumkin.



Hududning turistik jozibadorligini baholashda shakllantirilgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish quyidagi tadqiqot vazifalarini amalga oshirish imkonini beradi:

- mamlakat va mintaqalarda turizm sanoatining rivojlanish darajasini miqdoriy hamda sifat jihatdan baholash;
- hududning turistik jozibadorligi darajasini aniqlash jarayonida sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash;
- turizm faoliyatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni, jumladan, turizm sanoati va hududning turistik jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlash;
- turizm faoliyatidagi o'zgarishlarni prognoz qilish hamda ular asosida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish.


Yuqoridagi vazifalarni samarali hal etish uchun ko'rsatkichlar tizimi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- hududning turistik jozibadorligini shakllantirish jarayonini tavsiflovchi ko'rsatkichlar o'rtasidagi ichki o'zaro bog'liqlikni aks ettirishi;
- turizm faoliyatining barcha jihatlarini qamrab olishi, ya'ni jarayonni kompleks tavsiflashi;
- ko'rsatkichlar o'rtasida izchil o'zaro moslikni ta'minlashi;
- individual ko'rsatkichlar majmuini umumlashtiruvchi yoki integral ko'rsatkichlarga keltirish imkonini berishi.

Hududning turistik jozibadorligi darajasini baholashda alohida statistik ma'lumotlar yetarli emas. Statistik hisobotlar faqat muayyan mintaqada turizm rivojlanishining ayrim miqdoriy jihatlarini aks ettiradi. Shu sababli, turistik jozibadorlikni boshqarishda umumiy tendensiyalarni aniqlash muhim hisoblanadi. Buning uchun ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni inobatga olgan holda integratsiya tamoyilidan foydalanish zarur.

Hududning turistik jozibadorligi darajasining integral ko'rsatkichiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Har bir alohida omil yakka holda hal qiluvchi rol o'ynamasligi mumkin, biroq ularning uyg'unlashgan ta'siri sezilarli natija beradi. Shu bois, omillar va natijaviy ko'rsatkich — hududning turistik jozibadorligi darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda ko'p omilli korrelyatsion-regression tahlildan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan korrelyatsion-regression tahlilni amalga oshirish bosqichlari 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Korrelyatsiya-regression tahlil modelini yaratish va amalga oshirish bosqichlari



Iqtisodiy tahlilda tizimli yondashuvni qo'llash hududning turistik jozibadorligini baholashda muhim metodologik asos hisoblanadi. Ushbu yondashuv boshqaruv organlariga turizm sohasida qabul qilinayotgan qarorlarning turli yo'nalishlar — ishlab chiqarish, moliyaviy va marketing faoliyati — hamda turli darajalar — strategik, taktik va operatsion bosqichlar — bo'yicha o'zaro uyg'unligini aniqlash imkonini beradi. Natijada turizmni rivojlantirish jarayonida izchillik va samaradorlik ta'minlanadi.

Turizm faoliyati murakkab va ko'p omilli tizim bo'lib, uning rivojlanish darajasi turli iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilmaviy va tabiiy omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Shu bois hududning turistik jozibadorligini baholashda kompleks yondashuvdan foydalanish zarur bo'lib, unda mazkur omillarni birgalikda tahlil qilish talab etiladi. Bunday sharoitda korrelyatsiya-regression tahlil turistik jozibadorlik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning o'zaro bog'liqligini miqdoriy baholash uchun samarali usul sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda omillarni tanlash jarayonida ularning funksional ahamiyati, turizm tizimidagi o'rni hamda umumiy natijaga qo'shayotgan hissasi hisobga olinadi. Har bir omilning yakuniy baholashdagi ulushi aniqlanib, ular orasidagi ustuvorlik darajasi belgilanadi. Bu esa hududning turistik jozibadorligini yanada aniq va asosli baholash imkonini beradi.

Shu bilan birga, amaliy tahlilda muhim masalalardan biri — turizm rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ayrim omillarning statistik ma'lumotlarda to'liq aks etmasligidir. Masalan, hududning imiji, xizmat ko'rsatish sifati, xavfsizlik darajasi yoki madaniy muhit kabi omillarni miqdoriy jihatdan baholash murakkab bo'lib, ular ko'pincha statistik ko'rsatkichlar orqali to'liq ifodalanmaydi. Bunday holatlarni bartaraf etish uchun qo'shimcha sifat tahlili usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari hududning turistik jozibadorligini iqtisodiy baholash va uni tartibga solish jarayoni ko'p omilli hamda murakkab tizim ekanligini ko'rsatdi. Turizm sohasi turli iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilmaviy va tabiiy omillar ta'sirida shakllanib, ularning o'zaro uyg'unligi hududning umumiy jozibadorlik darajasini belgilaydi. Shu sababli turistik salohiyatni baholashda alohida omillar emas, balki ularning kompleks ta'sirini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, tizimli yondashuv turizmni samarali boshqarishda muhim o'rin tutadi hamda boshqaruv qarorlarining izchilligi va samaradorligini ta'minlaydi. Xususan, strategik, taktik va operatsion darajadagi qarorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni inobatga olish turizmni barqaror rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan korrelyatsion-regression tahlil hududning turistik jozibadorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning ta'sir darajasini miqdoriy baholash imkonini berdi. Bu esa turizmni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishda muhim metodik vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, ayrim muhim omillarning statistik jihatdan to'liq ifodalanmasligi qo'shimcha sifat yondashuvlarini qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. — Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Turizm statistikasi bo'yicha rasmiy ma'lumotlar to'plami. — Toshkent, 2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. Turizmni rivojlantirish bo'yicha yillik hisobot. — Toshkent, 2023.
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. "2030-yilgacha barqaror rivojlanish kun tartibi." — Nyu-York, 2015.
5. BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP). Yashil iqtisodiyotga o'tish yo'llari. — Nayrobi, 2011.
6. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO). Turizm va barqaror rivojlanish bo'yicha hisobot. — Madrid, 2018.
7. Musakhanov, K.A. Application of marketing research in green tourism regions. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2025-yil, dekabr, № 12-son.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
